



UCHTEPA BULOQMOZOR COMPLEX: HISTORICAL TOPOGRAPHY OF UCHTEPA-2 MONUMENT

Dilshod I. Tokhtasinov

PhD's student

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

E-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

Ulugbek M. Rakhmanov

Lecturer

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

E-mail: bek77777707@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: "Uchtepa-2" monument, Karadarya, Khaylom.

Received: 28.06.24

Accepted: 30.06.24

Published: 02.07.24

Abstract: In this article, the main issue of archaeological research in the monument "Uchtepa-2" is to study the historical topography of ancient monuments and their stratigraphy, and the scope of this topic can be the subject of research. Therefore, the study of the historical topography of the Buloqmazar archaeological monuments and the stratigraphy of the "Uchtepa-2" object, which stood on the coast of Kaynarbulok in the village of Uchtepa, Norin district, Namangan region, was chosen as a separate research topic.

UCHTEPA BULOQMOZOR MAJMUASI: UCHTEPA-2 YODGORLIGINING TARIXIY TOPOGRAFIYASI

Dilshod I. To'xtasinov

Tayanch doktoranti

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

E-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

Ulug'bek M. Raxmonov

o'qituvchi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

E-mail: bek77777707@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Uchtepa-2” yodgorligi, topografiya, stratigrafiya, Qoradaryo, Xaylom.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadqiqot ob’yekti sifatida olingen “Uchtepa-2” yodgorligida arxeologik izlanishlarning bosh masalasi avvalombor, antik obidalarning tarixiy topografiyasini o‘rganish bo‘lib, ushbu mavzuning ko‘lamni tadqiqot mavzusi bo‘la oladi. Shu boisdan, Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog‘idagi Qaynarbuloq sohilida qad ko‘targan Buloqmozor arxeologik yodgorliklarining tarixiy topografiyasini va “Uchtepa-2” ob’yekti stratigrafiyasining o‘rganish alohida tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olindi.

КОМПЛЕКС УЧТЕПИНСКИЙ БУЛОКМОЗОР: ИСТОРИЧЕСКАЯ ТОПОГРАФИЯ ПАМЯТНИКА УЧТЕПА-2

Дилишод И. Тохтасинов

Докторант

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

E-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

Улугбек М. Рахманов

преподаватель

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

E-mail: bek77777707@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: памятник «Учтепа-2», топография, стратиграфия, Карадарья, Хайлом.

Аннотация: В данной статье основным вопросом археологических исследований памятника «Учтепа-2» является изучение исторической топографии древних памятников и их стратиграфии, а объем данной темы может быть предметом исследования. Поэтому изучение исторической топографии Булокмазарских археологических памятников и стратиграфии объекта «Учтепа-2», стоявшего на побережье Кайнарбулока в селе Учтепа Норинского района Наманганской области, было выбрано в качестве отдельного исследования.

KIRISH

Uchtepa arxeologik yodgorliklar majmuasi uchta tepaliklardan iborat. Ularning birinchisi qo‘shaloq Qaynarbuloq sohilida joylashgan “Uchtepa- 1”, undan 500 metrlar chamasiga g‘arbda

joylashgan “Uchtepa-2”, ularga tutash joylashgan uchinchisi Aminjon otaning charbog“ida qisman saqlanib qolgan pastkam tepachalar bo‘lib, ularga shartli ravishda “Uchtepa-3” nomi berildi.

ASOSIY QISM

Dastlabki izlanishlardan ma’lum bo‘lishicha, “Uchtepa-3” tepaliklari aslida qadimgi shaharning shahristoni va ko‘handiz xarobalari joylashgan maydoni bo‘lib, mahalliy aholining tomorqa hovli-joylariga aylanib ketgan. Bu haqda tomorqa uchastkalarini qurish vaqtida uchrab turadigan arxeologik materiallarning yoyilish geografiyasi ham guvohlik beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Uchtepa-3”dan sharqda, kunchiqar tomonda qad ko‘targan eng baland tepalik – “Uchtepa 2” esa qandaydir hukmdorning mozor-qo‘rg‘oni bo‘lishi mumkin, degan fikrga kelindi. Chunki, uning tepasida hech qanday arxeologik materialga duch kelinmadi.

O‘rtasi hovuzsimon cho‘kkan “Uchtepa-1” esa xukmdorning yozgi rezidensiyasini eslatadi, shuning uchun “Uchtepa-2” ob’yektida arxeologik qazishmalar olib borishga ahd qilindi.

Ushbu qadimgi shahar xarobalarining izlari taxminan 38–40 hektarli maydonni egallagan. Avvalambor, Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklarining joylashish o‘rnini bilan tanishgach, qo‘shaloq Qaynarbuloq suv yo‘nalishini kuzatish bilan shug‘ullanildi. Olib borilgan tarixiy topografik kuzatuvlarga ko‘ra, qo‘shaloq Qaynarbuloq suvlari o‘ziga o‘zan yorib, janubig‘arbga tomon qir yoqalab oqadi va bir necha kilometrdan so‘ng Qoradaryoga qo‘shilib ketadi. Mana shu masofada qir osti bo‘ylab bir necha buloqlar otilib chiqqan, har bir buloqqa yaqin qir ustida antik va ilk o‘rta asrlar davri dehqonzodalarining qasr hamda ko‘shklari qad ko‘targan. Demak, Xaylom shahrining ushbu tomoni uning janubiy chegarasini tashkil etgan. Uning sharqiy chegarasi esa Uchtepa-Buloqmozor manzilidagi qo‘shaloq Qaynarbuloq sohilida qad ko‘targan “Uchtepa-1” yodgorligi bo‘lib, uning shimol tomonidan qadimda mahalliy ahamiyatga molik savdo karvon yo‘li o‘tgan. Ushbu savdo karvon yo‘li bo‘ylab parallel chuqur va keng kanal o‘tgan. Kanal boshi Qorateri qishlog‘idan boshlanib, unga suv Qoradaryodan olingan. Mahalliy savdo karvon yo‘li bilan parallel qazilgan kanal Xaylomning shimoliy daxalarini oralab, uning g‘arbiy chegarasiga yetganda, shimoli-g‘arbga burilib, qo‘shni Cho‘ja qishlog‘i tomon yo‘naltirilib, qishloq ahlini suv bilan ta’milagan. Shu boisdan hozirgacha ushbu kanal hozirgacha “Cho‘ja arig‘i” deb ataladi.

Savdo karvon yo‘li kanal bilan parallel Cho‘ja qishlog‘ini oralab, Norin daryosi chop sahilida qadimda tashkil topgan Qurbon ota qabristoniga yetgach (Mozorot yaqinida shu nom ostida antik va o‘rta asrlarga tegishli qadimda qal’a barpo etilgan), Quyi Cho‘ja mahallalarini oralab, Qurbon orolga o‘tib ketgan. Xaylom shahrining g‘arbiy tomoni esa Past mahalla arig‘i bilan chegaralanadi. Demak, ikki daryo (Norin va Qoradaryo) oralig‘ida joylashgan Xaylom shahrining chor atrof chegaralari aniqlanib, ushbu kenglik maydoni to 1940- yillargacha o‘z tarixiy topografiyasi shaklini saqlab qolgan edi.

Mustaqillik yillarda Xaylom shahrining chor atrofi o'zlashtirilib, endilikda u o'zining tarixiy qiyofasini yo'qotdi. Uning hududiy doirasidagi dehqonzoda qasr va qal'alari, ariq hamda zavurlar, kanallar, masjid va madrasalar hamda savdo karvon yo'llaridan nomu-nishon qolmadi.

Akademik A. Asqarovning kundaliklarida yozilishicha, 1963- yilning bahorida unga Krasnoyarsk GES qurilishi munosabati bilan ustoz, prof. M. P. Gryaznovning taklifiga ko'ra, Yenisey daryosi suvi ostida qolib ketishi mumkin bo'lган Novosyolova ovuli (posyolkasi)da arxeologik otryadga rahbarlik qilish vazifasi yuklatiladi. Uning baxti chopib, o'rganayotgan mozor-qo'rg'onlarning to'ng'ichi bronza davri (mil. avvalgi II ming yillik o'rtalariga tegishli) chorvador qabilalar sardorining qabri bo'lib chiqadi. Qabr qirrasi bilan tiklangan plita toshlardan qurilgan, umumiyligi maydoni 5 kvadrat metrni tashkil etgan tosh yashik bo'lib, uning ustki plita toshi bus-butun, yog'och tobutda yotgan skeletning chor atrofi sopol idishlardan tashqari oltin va kumushdan yasalgan san'at namunalari bilan to'la bo'lган.

Odatda, bunday qabila sardorlarining qabrlari aksariyat hollarda qadimda mozor o'g'rilar tomonidan o'g'irlangan bo'ladi. O'g'irlangan qabrnning yopinchik plita toshi esa parchalangan bo'ladi, ammo bunday holat Novosyolovada ko'zga tashlanmaydi.

Xushyor yosh arxeolog otryad a'zolarining barchasini tushki ovqatga lagerga jo'natib, qazishma maydonida yolg'iz o'zi qoladi. Kirka yordamida yopinchik plita toshining chekkasidan biroz yuqoriga ko'targanda, uning ostida, qabr ichida chang bosgan, oltindan ishlangan ashyoviy dalillar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Olim darhol qabr ustiga bir kishilik palatka o'rnatib, uning chor atrofiga vatmanga katta harflar bilan "Chuma" so'zini bitib, maxsus kod orqali teg'ishli joyga xabar yuboradi. "Chuma" yozuvi nafaqat otryad a'zolari, balki har kuni ishdan so'ng tomoshaga keluvchi quruvchi mahbuslarni ham dahshatga soladi. Yemak keltiruvchi oshpazdan boshqa uch kun davomida "maxsus masullar" kelmaguncha hech kim "Chuma maydoni"ga yaqinlashmaydi.

Nihoyat, qabrdagi boyliq to'rtta choy yashiklarga joylashtirilib, Sverdlovskiy shahriga A. Asqarov ishtirokida olib ketiladi va topilmalar belgilangan tartibda bir oy davomida davlatga topshiriladi.

"Sovet davri qonunchiligiga ko'ra, topilmalarning xomashyo sifatida qimmatidan 20 foizi kashfiyotchiga mukofot sifatida berilar edi. O'shanda 5 ming rubl sohibi bo'ldim, unga 3ta "Pobeda" markali yengil avtomashina sotib olish mumkin bo'lган. Shu boisdan 1963- yilning kuzida foydalanimay kelingan uch yillik mehnat ta'tiliga chiqib, uni Uchtepada o'tkazishga qaror qilgan edim" deb xotirlaydi akademik A. Asqarov.

Ta'til vaqtida qishloqdoshlari yordamida Uchtepadaagi tepalardan birinchisi, ya'ni "Uchtepa-1"da 2x3 m. maydonda shurf qaziydi. Qazishma jarayonida yodgorlikning quyi madaniy qatlamidan antik davrga oid kulolchilik charxida ishlangan, qizil angobli o'ta nafis sopol parchalari va bir qancha arxeologik topilmalar chiqa boshlaydi (Rasm....). O'sha vaqtda moliyaviy

imkoniyatning yo‘qligi va vaqtning tig‘izligidan shurf 2,5 metrlar chamasi chuqurlikkacha qazilib, materikkacha yetkazilmay, arxeologik qazishma ishlari to‘xtatiladi. 2024- yilda to‘rt davlat (O‘zbekiston, Xitoy, Qirg‘iziston va Tojikiston) arxeologlarining Farg‘ona koridorini hamkorlikda o‘rganish uchun olib borgan stratigrafik izlanishlariga ko‘ra, Uchtepa-1 arxeologik yodgorligida madaniy qatlamning qalinligi 2,70 sm ekanligi aniqlandi.

Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasida to‘laqonli arxeologik izlanishlar olib borish A. Asqarovga shogirdlari bilan birgalikda mustaqillik davrida nasib etdi. Ungacha akademik A. Asqarov uzoq yillar arxeologiya fani yo‘nalishi bo‘yicha rahbarlik lavozimlarida band bo‘lib, o‘zi tug‘ilib o‘sigan Uchtepa qishlog‘idagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganishga vaqt topa olmaydi.

2017- yilda O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hamda mamlakatni boshqaruv tizimida keskin tub o‘zgarishlar yuz berdi, ilm-fanga e’tibor kuchaydi. Arxeologiya fanining shaxsan Respublika Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida sohada yangi tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Uchtepa qishlog‘idagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish ishlari qayta jonlandi. Sohani rivojlantirishda tinib-tinchimas A. Asqarov Respublika innovation rivojlanish vazirligining 2019-2020- yillar uchun e’lon qilingan tanlovda “Uchtepa arxeologik yodgorliklarini o‘rganish va ularni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga ilmiy tayyorlash” mavzusida ilmiy-amaliy loyiha yutib oladi [1. – B. 18].

2018- yildagi yozgi ta’til vaqtida dissertatsiya muallifi ustozি, akademik A. Asqarov boshchiligida Uchtepa arxeologiya yodgorliklari majmuasining o‘rganishga kirishadi. To‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, Uchtepa-Buloqmozor manzilida joylashgan ulkan Qaynarbuloqdan kunbotish tomonida qadimgi shahar xarobalari joylashganligi haqida dastlabki ma’lumotlar olindi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Uchtepa-3” tepaliklari aslida qadimgi shaharning shahristoni va ko‘handiz xarobalari joylashgan maydon bo‘lib, hozirgi kunda mahalliy aholining tomorqa hovli-joylariga aylanib ketgan. Ushbu qadimgi shahar xarobalaridan sharqda, kunchiqar tomonda qad ko‘targan baland tepalik “Uchtepa-2” deb nomlanib, dastlab bu yer mahalliy hukmdorning mozor-qo‘rg‘oni bo‘lishi mumkin, degan fikrga kelindi. Chunki, uning tepasida hech bir arxeologik material uchratilmadi.

A. Asqarovning ta’kidlashicha, odatda, islom dini qabul qilinishidan avvalgi davrlarda ko‘milgan qabrlarda vafot etgan kishi kim bo‘lishidan qat’iy nazar, tiriklik chog‘ida nima bilan shug‘ullangan bo‘lsa, uning qabriga kasbi-koriga tegishli mehnat qurollari, shaxsiy buyumlari, ayollar qabridan zebu-ziynatlar, urug‘doshlari tomonidan keltirilgan sopol idishlarda ovqatlar bilan qo‘shib ko‘mish urf-odat bo‘lgan [2. – C. 172]. Agar hukmdor yoki qabila sardori vafot etsa, uning boyligidan bir qismini ham jasadga qo‘shib ko‘mish odati mavjud bo‘lgan. Hukmdorning

qabri oddiy odamlarnikidan farqli o‘laroq, mahobatli baland tepalik qiyofasida bo‘lgan. Hukmdor dafn marosimida uning qo‘l ostidagi jamoa, urug‘, qabila, barcha aholi vakillari qatnashgan.

Ma’lumki, Yevroosiyo dashtlarining Paziriq, Bashadar, Salbik, Arjan kabi mozor-qo‘rg‘onlari ichki tuzilishida aniqlanganidek, hukmdor vafot etsa, diametri 2 metrdan kam bo‘lmagan daraxt tanasidan koloda, ya’ni tobut yasalgan. Uning ichiga xushbo‘y dorivor o‘simpliklarning mayda shoxcha va barglari yanchib to‘shalgan. Murda qorni yorilib, uning ichki organlari dorivor o‘simpliklar sharbati bilan yuvilib, qorniga sariq sabzi to‘ppasi to‘lg‘izilib tiqilgan, so‘ngra murda bayramona kiyimda, tobutga yotqizilgan [3. – C. 28].

Sibir sharoitida g‘o‘la yog‘ochlar (O‘rta Osiyoda paxsa yoki xom g‘isht)dan maxsus qabr qazilib, uning qoq o‘rtasiga murda yotqizilgan koloda (tobut) joylashtirilgan, xonaning qolgan qismiga unga atalgan ashyoviy artefaktlar joylashtirilgan. Xona tomi esa zikh qilib terilgan yog‘och xarilar bilan yopilgan. Xarilardan tashkil topgan qabrxona tomi ustiga qalin qilib daraxt shohlari bosilib, so‘ng uning ustiga qalin qilib, har xil katta-kichiklikdagi toshlar yotqizilib, toshlar uyumidan iborat toshtepalik hosil qilingan. So‘ngra tosh tepalik ustiga qalin qilib tuproq bosilgan, shunday qilib, hukmdor qabri baland tepe qo‘rg‘on sifatida qad ko‘targan [4. – C. 64].

Shu bois, uning ustki tuproq qismida arxeologik ashyoviy dalillar uchramaydi. Agar mozor-qo‘rg‘on boyligi qachonlardir qabr o‘g‘rilari tomonidan o‘g‘irlangan bo‘lsa, mozor-qo‘rg‘onning qoq o‘rta qismi cho‘kkan bo‘ladi. Bu borada Respublika hududida mozor-qo‘rg‘onlarni tadqiq etish jarayonida arxeolog mutaxassislar ko‘plab shunday holatlarga duch kelgan.

Odatda, patriarxal urug‘ jamoasi jamiyatning asosiy kuchiga, ijtimoiy lideriga aylangan kezlarda “hukmdor qabrining oyoq tomoniga eng yosh xotini hamda uning xizmatidagi kanizaklarga zaxar ichirib, o‘ldirib, qo‘shib ko‘miladi. Ayol qabridan uning oltin va qimmatbaho toshlardan yasalgan zebu-ziynatlari, oltindan yasalgan poytun aravasi, kiyimlariga tikib chiqilgan oltin taqinchoklar qo‘shib ko‘milgan”. Bunday malika qo‘rg‘onlarini Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Ko‘ktepa yodgorligida “Sak malikasi” nomi bilan ochib o‘rganilgan mozor-qo‘rg‘onda analogiya sifatida ko‘rish mumkin [5. – C. 108].

“Agar hukmdorga tiriklik chog‘ida bir necha qabila sardorlari tobe bo‘lsa, ularning har biri bittadan otni shohona yasatib, hukmdor qabri joylashgan tepalikning aylanasi bo‘ylab maxsus xonalarga o‘ldirib ko‘mganlar, bu ularning hukmdorga tobeligidan dalolat beradi. Xuddi shunday qabr-qo‘rg‘on A. Asqarovning ilmiy rahbari M. P. Gryaznov tomonidan Xakasiyada ochib o‘rganilgan. U Arjan nomli mozor-qo‘rg‘onini ochganda, hukmdor qabri tepaligi ostidan 72 ta ot qabrlari aniqlangan [6. – C. 16]. Yodgorlikda topilgan boylik juda boy artefaktlarga ega bo‘lib, M. P. Gryaznov birgina “Arjan” kitobi uchun davlat laureati mukofotiga sazovar bo‘ladi.

Akademik A. Asqarovning xotiralarida eslangan voqealardan kelib chiqqan holda “Uchtepa-2” ob‘yekti ham ana shunday mozor-qo‘rg‘on bo‘lishi mumkin, degan faraz ilgari surildi.

Yuqoridagilarni inobatga olinib, “Uchtepa-2” yodgorligida qazishma ishlari boshlab yuborildi. Biroq, Uchtepa-2 ob’yekti xukmdor mozor-qo‘rg‘oni emas, balki antik va ilk o‘rta asrlarga tegishli zardushtiylik ibodatxonasi bo‘lib chiqdi.

Keyingi vaqtarda unga shimoliy tomondan tig‘iz qilib hovli-joylar qurilib, chiqindixonaga aylantirib yuborilgan, janubiy-sharqiy tomondan esa zamonaviy qabrlar qo‘yilib, yodgorlikka katta shikast yetkazilgan. Bizgacha saqlangan tepe maydoni taxminan 0,50 ga. Qazishma jarayonida ochilgan me’moriy qurilma qoldiqlari va topilmalar assortimentiga ko‘ra, A. Asqarov ushbu tepalikni qadimgi shahar aholisining “Quyoshga sig‘inadigan muqaddas ibodatxona”si bo‘lishi kerak, degan fikrni bildirdi. Bu Farg‘ona vodiysida bunday ko‘rinishga ega bo‘lgan ilk bor aniqlanayotgan yodgorlik hisoblanadi.

XULOSA

Arxeologik topilmalar tahliliga ko‘ra, ibodatxonaga mil. avv. 2300–2000 yillar oralig‘ida asos solingen. Arablar bosqini davrida ibodatxona vayron etilib, keyin qayta tiklanmagan. Hozirgi kunda “Uchtepa-2” yodgorligi milodiy VIII asr oxirlaridan shakllana boshlagan va hozirgacha davom etib kelayotgan qishloq qabristoni bilan qo‘silib ketgan. Hatto, keyingi yillarda uning quyoshga o‘ngay tomonida qabrlar qo‘yilishi davom etgan. Yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlangach, qishloq oqsoqollarining roziligi olinib, bu yerda zamonaviy qabrlar qo‘yilishiga chek qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Асқаров А. Ички ва халқаро туризмнинг “Учтепа Булоқмозор” мажмуси археологик ёдгорликларини ўрганиш ва уларни “Мовий осмон” остидаги музейга айлантириш. Давлат илмий-техника дастурлари доирасида бажарилиши 2019-2020 йилларга мўлжалланган амалий лойиҳа. – Тошкент, 2019.
2. Грязнов М. П. Первый Пазырыкский курган. – Л.: Гос. Эрмитаж, 1950. – С. 92; Ўша муаллиф: Аржан. Царский курган раннескифского времени. – Л., 1980. – С. 64.
3. Горбунова Н. Г. Могильник Хангиз II в Фергане // АСГЭ. Вып. 31. – Санкт-Петербург. 1991. – С. 108–120.
4. Грязнов М. П. Аржан. Царский курган раннескифского времени... – С. 16.
5. Исамиддинов М., Рапен К., Грене Ф. Раскопки на городище Коктепа // АИ-2000. Вып. 1. – Самарқад, 2001. – С. 79–86.
6. Грязнов М. П. Аржан. Царский курган раннескифского времени... – С. 64.